

**ISLOMDA FUQAROLIK HUQUQIY MUNOSABATLARI
(MUAMALAT)***Feruza Ro'ziqu洛va,**Toshkent davlat yuridik universiteti
3-kurs talabasi*

Islom huquqi necha ming yillardan beri musulmon olamida asosiy va birdan-bir huquq tizimi hisoblanadi. Musulmonlarni halollikka, poklikka va birdamlilikka o'zganing joniga, moliga, mulkiga xiyonat qilsamlik ruhida tarbiyalaydi. Musulmon huquq tizimining o'ziga xos tomoni shundaki, davlat musulmonlarga diniy qarashlar bilan bir qatorda hayot tarzini ham belgilab bergan. Musulmon huquqdagi asosiy manbalardan biri bo'lgan Qur'oni Karimda ham musulmonlarning hayoti sog'lig'i mulki va boshqa huquq erkinliklari belgilab qo'yilgan. Musulmon huquq tizimi hozirgi kunda ham o'z mavqeini yo'qotmagan huquq tizimi hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy dunyoda yashar ekanmiz musulmon davlatlari mavjud. Ular to'liq musulmonchilik an'analariga tayangan holda ish olib borishadi. Hozirgi zamon huquq tizimida huquq manbalari 3 turga bo'linadi bular:

- Huquq normalari
- Huquq sohalari
- Huqu institutlari

Shu asnoda huquq sohalari ham bir nechta turlarga bo'limadi. Masalan, jinoyat huquqi, ma'muriy huquqi, fuqarolik huquqi, jinoyat protsessular huquqi. Shu asnoda musulmon huquq tizimi ham bir qancha huquq sohalariga bo'linadi va bularga misol tariqasida oila nikoh munosabatlari, islomda jinoyat huquq kabilarni ko'rsatsak bo'ladi. Shu qatorda islomda fuqarolik huquqi ya'ni muomalaga to'xtaladigan bo'lsak, fuqarolik huquqi islom dining asosiy huquq sohalaridan biri hisoblanadi. Avvalo hozirgi kunda fuqarolik huquqi nima ekanligiga to'xtaladigan bo'lsak, fuqarolik huquqi deb "O'zaro teng subyektlar o'rtasida vujudga keladigan mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan munosabatlar



tizimi isoblanadi”. Hozirgi huquq tizimida fuqrolik huquqi o’zaro teng suyektlardan iborat ya’ni biron bir subyekt gigemon emas. Davlat va yuridik shaxslar. Bu subyektlar munosabatga kirishgan taqdirda o’zaro teng bo’lishadi. Mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Musulmon huquq tizimini rivojlanishi Halifalik sarxadlarini kengayishi bilan bog’liq jarayon hisoblanadi. “Halifalik sarhadlarining kengayishi islom diniga e’tiqod qiluvchilarning soni ortib borishi bilan, musulmonlarda fuqarolik huquqiga talab kuchaydi. Arab xalifaligi kengaygach, uning fuqarolarining soni ortdi, natijada fuqarolik huquqiga taalluqli oyat va hadislarni bir tizimga solish, ularni takomillashtirish va talab darajasida ishlab chiqish ehtiyoji tug‘ildi. Shu asoslarga ko’ra fuqarolik huquqi vujudga keldi va musulmon huquqi tizimida yetakchi tarmoqqa aylandi desak xato gapirmagan bo’lamiz. Islom huquqida Musulmon huquqi, ayniqsa, fuqarolik huquqini ishlab chiqishda zabit etilgan xalqlarning huquqiy normalari ham hisobga olindi. Islom fuqarolik huquqining rivojlanishi Abbosiylar xalifaligi davrida, imom A’zam Abu Hanifaning shogirdi va maslakdoshi Abu Yusufning bosh qozi lavozimiga tayinlanishi bilan boshlandi”¹.

Islom huquqida fuqarolik huquqiy munosabatlari diniy tamoyillar va huquqiy pretsedentlar birikmasi asosida tartibga solinadi. Bu munosabatlar shartnomalar, mulkka egalik qilish, meros va shaxsiy huquqlar kabi shaxslar o‘rtasidagi o’zaro munosabatlarning keng doirasini qamrab oladi. Islom fuqarolik huquqi Qur'on va Hadislarda bayon etilgan tamoyillarga, Muhammad payg'ambarimizning amallari va so'zlariga asoslanadi. Bu adolat va odamlarga nisbatanadolatli munosabatda bo'lishga urg'u beradi. Islom huquqi ham shartnoma majburiyatlarini bajarishga va turli fuqarolik ishlarida shaxslarning huquqlarini himoya qilishga katta e'tibor beradi. Har bir huquq sohasinng obyeklari, subyektlari bo'lgani kabi islom fuqarolik huquqining ham obyektlari va subyektlari mavjud bular:

Subyektlari – mulkodor musulmon va Abbosiylar davrida qullar ham fuqarolik huquqiy subyektlari bo'lishgan.

¹ Isxakov S.A Islom fuqarolik huquqi asoslari. T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2005 – B.18.



Obyektlari: Fuqarolik huquqining obyektini ashyolar, mulkiy, shuningdek, mulkiy xarakterga ega bo‘limgan shaxsiy huquq (masalan, ismga ega bo‘lish huquqi) tashkil etgan.

Hozirgi zamон huquq tizimida ham fuqarolik huquqining subyektlari keltirib o’tilgan. Fuqarolik Kodeksiga muvofiq fuqarolar yuridik shaxslar va davlat fuqarolik huquqining subyektlari hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 81-moddasiga muvofiq, “Fuqarolik huquqlarining obyektlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog‘ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtiolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san’at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi”².

deb belgilangan.

Islom fuqarolik huquqida musulmonlar va qullar fuqarolik huquqining subyektlari bo’lgan va ular fuqarolik muomalasida ishtirok eta olishgan. Islom huquqining o’ziga xos tomoni shundaki Abbosiylar davriga kelib qullar ham fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok eta olishgan ya’ni xojalarining ruxsati bilan mayda-maishiy bitimlar tuzish layoqatiga ega bo‘lishgan. Hozirgi zamон O’zbekiston huquq tizimida fuqarolik munosabatlarda fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat subyekt deb keltirib o’tilgan va fuqarolar toifasiga fuqarolar, fuqaroligi bo‘limgan shaxslar va chet el fuqarolari kirishadi. Islom huquq tizimidan farqli jihat shundaki islom fuqarolik huquqida subyekt bo‘lish uchun musulmon bo‘lishi kerak bo’lgan. Fuqarolik huquqining obyektlariga to’xtaladigan bo’lsak, ikki davlat huquq tizimida oldingi davrda ham hozirgi davrda ham mulk va shaxsiy nomulkiy huquqlar asosiy obyektlar hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi subyektlari fuqarolik muomalasida ishtirok etishlari uchun muomala layoqati va huquq layoqatiga ega bo’lgan bo‘lishi kerak. Huquq layoqati islom huquq tizimida tug’ilishi bilan vujudga keladi va shaxs vafot etgunicha yoki bedarak yo’qolgan deb topilgunicha davom etadi. Islom huquqiga ko‘ra, “ Shaxs

² O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish” 2022.



balog‘at yoshiga yetgandan so‘ng muomala layoqatga ega, deb topiladi. Erkaklarda soqlol chiqishi yoki 15 yosh, ayollarda hayz kelishi yoki 9-10 yosh (ba’zi issiq o’lkalarda ushbu yoshda qizlar balog‘atga yetadi) muomala layoqatini beradi.muomila layoqatga ega, deb topiladi”³.

Milliy qonunchiligimiz bilan taqqoslaydigan bo’lsak, Fuqarolik Kodeksining 17-modasiga muvofiq, “Fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi”⁴.

Muomala layoqati esa ushbu kodeksning 22-moddasiga muvofiq “Fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga keladi”⁵.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo’lsak, islom huquqida ham milliy huquq tizimimizda ham huquq layoqati tug‘ilgan paytdan boshlab vujudga keladi va o’lgunicha davom etadi. Muomala layoqatida ba’zi farqlarni ko’rishimiz mumkin masalan yosh farqi milliy huquq tizimimizda 18 yosh islom huquq tizimida esa, erkaklar uchun 15 yosh qizlar uchun 9-10 yosh.

Islom huquqida ham hozirgi davr zamonaviy huquq tizimida ham mulk fuqarolik huquqining asosiy obyekti hisoblanadi. “Mulk tushunchasiga islom dinida turli mazhablar tomonidan turlicha tariflar keltirib o’tilgan. Masalan, Islom huquqida “mulk” (“buyum”) tushunchasi turli mazhablarda turlicha talqin qilinadi. Ba’zi faqihlar mulk bo‘lish uchun u muayyan qiymatga ega bo‘lishi, iste’molga yaroqliligi, tabiatiga ko‘ra kimgadir xususiy mulk bo‘la olish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak deyishgan. Hanafiy mazhabi ulamolari yuqorilardagidan tashqari yana mulk jamg‘arilish xususiyatiga ega bo‘lishi shart deyishgan. Shofi’iy va Hanbaliy mazhabni tarafdarlari inson mehnati pul bilan o’lchanadigan bo‘lsa, uni ham buyum deyish mumkin, degan fikrni ilgari surishgan.Islom huquqida “mulk” (“buyum”) tushunchasi turli mazhablarda turlicha talqin qilinadi. Ba’zi faqihlar mulk bo‘lish uchun u

³ B. Marg‘inoniy. Al-Hidoya (o‘zbek tiliga tarjima). T.1. – T.: 2000

⁴O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish” 2022.

⁵ O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish” 2022.



muayyan qiyomatga ega bo‘lishi, iste’molga yaroqliligi, tabiatiga ko‘ra kimgadir xususiy mulk bo‘la olish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak deyishgan. Hanafiy mazhabi ulamolari yuqorilardagidan tashqari yana mulk jamg‘arilish xususiyatiga ega bo‘lishi shart deyishgan. Shofi’iy va Hanbaliy mazhabi tarafdorlari inson mehnati pul bilan o‘lchanadigan bo‘lsa, uni ham buyum deyish mumkin, degan fikrni ilgari surishgan”⁶.

Islom huquqida xususiy mulkni himoya qiladigan ko‘plab normalar mavjud. Xususiy mulk egaligi to‘g‘risida faqihlar ko‘plab fikr bildirganlar. Xususiy mulkning himoya qilinishi turli mazhablarda turlicha talqin qilingan. Masalan, Hanafiy mazhabi namoyandalari mulkka 15 yil faktik egalik qilish bilan bu mulk xususiy mulkka aylanadi, deb fikr bildirgan. Shunga ko‘ra, 15 yil biror mulkka egalik qilgan fuqarolar o‘sha mulkka tamoman ega bo‘lib qoladi. Molikiy mazhabi faqihlari fikriga ko‘ra, ko‘chmas mulkka nisbatan 10 yil, ko‘char mulkka nisbatan 2-3 yil egalik qilgan shaxs, agar o‘sha mulk egasi tomonidan e’tiroz bildirilmas ekan, uning tamoman egasiga aylanadi. Molikiy mazhabi tarafdorlari o‘z so‘zlariga dalil sifatida Muhammad (s.a.v.) ning “10 yil davomida buyumga egalik qilgan shaxs uni egasi bo‘lib qoladi”, degan hadisini keltirishgan. Islom huquqida xususiy mulkni himoya qiladigan ko‘plab normalar mavjud. Xususiy mulk egaligi to‘g‘risida faqihlar ko‘plab fikr bildirganlar. Milliy qonunchiligidan ham egasiz ashyoga nisbatan egalik qilish huquqining vujudga keltiruvchi muddatlar keltirib o’tilgan. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 187-moddasiga muvofiq, “Mulkdor bo‘lmagan, lekin ko‘chmas mol-mulkka o‘n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o‘ziniki kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi (egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat)”. Islom huquqida ham milliy qonunchiligidan ham fuqarolik huquqida egasiz ashyoga nisbatan nisbatan bir xil muddatlar berilgan bundan ko‘rinib turibdi-ki bu kabi masalalar o‘sha davrda ham hozir ham o‘z dolzarbligini yo’qotmagan va hozirgi qonunchilik uchun asos vazifasini bajargan. Musulmon huquq tizimida fuqarolik huquqiga alohida e’tibor qaratilgan. O’sha davrda shaxslar o’rtasida shartnomalar

⁶ A. RAXMANOV, H. YUNUSOV, M. QARATASH Islom huquqi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - T.: “TDYUI”nashriyoti, 2007. - 496 - b.



erkinligi mavjud b’lgan. Lekin shartnoma tuzish uchun ma’lum bir talablarga javob berish muhim hisoblangan. Masalan aqli raso va muomala layoqatiga yetgan, mulkdor musulmon erkak fuqarolik muomalasiga kirisha olgan ya’ni ular o’zaro shartnoma va bitimlarni tuza olishgan. Hozirgi zamon qonunchiligidagi ham fuqarolar muomala layoqatiga ega bo’lishi kerak muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar o’rtasida tuzilgan bitim o’z o’zidan haqiqiy emas deb topiladi. Musulmon fuqarolik huquqinng eng asosy jihatlaridan biri bu shartnoma huquqi hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy fuqarolik huquqida ham taraflar o’rtasidagi shartnoma fuqarolik huquqining asosiy qismi hisoblanadi. Islom fuqarolik huquqida shartnoma tuzishning o’ziga xos shartlari mavjud bo’lgan va bular Burxoniddin Marg’inoniyning “Hidoya asrida alohida bob ajratilgan. Shartnomalarning eng asosiy elementlari bu “aqd” va “iyqo”” hisoblanadi.

Aqd – ikki yoki undan ortiq shaxsning o’zaro kelishib og‘zaki yoki yozma holda o’zlariga erkin majburiyatni olishidir.

Iyqo’ – esa bir tomonning talabi bilan bo‘ladigan bir tomonlama bitimdir. O’zga shaxslarning xohish irodasi bunday bitimlarning tuzilishiga ta’sir etmaydi. Iyqo ga – taloq, nazr, qasam kiradi. Shartnomalarning eng asosiy elementlari bu “aqd” va “iyqo”” hisoblanadi.

Aqd – ikki yoki undan ortiq shaxsning o’zaro kelishib og‘zaki yoki yozma xolda o’zlariga erkin majburiyatni olishidir.

Iyqo’ – esa bir tomonning talabi bilan bo‘ladigan bir tomonlama bitimdir. O’zga shaxslarning xohish irodasi bunday bitimlarning tuzilishiga ta’sir etmaydi. Iyqo’ga – taloq, nazr, qasam kiradi”. Shartnoma tuzishda shartmonanining predmetiga ham alohida ahamiyat berishgan, Masalan, islom muomalat huquqida shartnomanining predmeti bo’lib, eng avvalo, birovga erkin o’tish xususiyatiga mulk bo’lishi kerak bo’lgan. Havodagi qush, cho’kkan kema, arqonidan qochgan chorva moli shartnoma predmeti bo’la olmaydi. Shartnoma predmeti muayyan, aniq narsa bo’lib, tomonlar u haqida yetarlicha ma’lumot olishlari kerak, muhimi – shartnoma predmeti naqd



bo‘lishi, shuningdek, shartnomaning predmeti va maqsadi, islom huquqi nuqtai nazaridan, ruxsat etilgan bo‘lishi kerak”⁷.

Shartnomaning shartlari.

Eng avvalo, tomonlarning roziliklari va xohishlarini erkin bildirishlariga mone’lik qilmasligi lozim. Majburlov ostida yuzaga kelgan bitim noqonuniy hisoblanadi. Shartnoma tuzushda ikki taraf ham roziliği juda muhim hisoblanadi. hozirgi zamon milliy qonunchiligidan ham shartmona tuzish shartlari belgilab qo‘yilgan bu sohada ham o‘xshashlikni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 353-moddasiga muvofiq, “Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi. Shartoma tuzish erkinligi ham ushbu kodeksining 354-moddasiga muvofiq, “Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, shartnoma tuzish burchi ushbu Kodeksda, boshqa qonunda yoki olingen majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.” Ushbu norma bilan islom fuqarolik huquqining yuqoridagi shartnoma erkinligi borasidagi norma bir xil ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shartnoma tuzish erkinligida islom huquqida ham milliy qonunchiligidan ham ta’minlangan. Bu borada shartnoma Islom huquqida shartnoma ijrosini ta’minalash vositalariga kafillik, garov, omonat kiradi. Musulmon fuqarolik huquqining va hozirgi zamon milliy qonunchilik tizimida ham mulk huquqqi bo‘lgani kabi majburiyat huquq ham mavjud. Ikki shaxs o‘z ixtiyoriga ko‘ra shartnoma tuzishsa ulardan birida huquq ikkinchi tomonda majburiyat vujudga keladi.

Islom fuqarolik huquqida majburiyat huquq nima va uning vujudga kelish asoslariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “Majburiyat huquqi – islom qonunchiligining eng rivojlangan institutlaridan biridir. Islom huquqi bo‘yicha yuzaga kelish asoslariga qarab shartnomaviy majburiyatlar hamda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar farqlanadi. Jismoniy shaxs ham, yuridik shaxs ham shartnoma munosabatlarining subyekti bo‘lishi mumkin. Bunda vakillikka yo‘l qo‘yiladi. Shartnomaning qonuniyligi, taraflarning xohish-irodasiga shartnoma mazmunining

⁷ Prof. Dr. Wahbah az-Zuhaili. Fiqih Islam wa Adillatuhu. Jilid 6. Darulfikir. – R.83



muvofigligi hamda shartnoma munosabatlari subyektlarining muomalaga layoqatliligi shartnomaning haqiqiyligi shartlaridandir”.

Qur'on fuqarolik munosabatlarining turli jihatlariga, jumladan, shartnomalar, mulk huquqi, oilaviy masalalar va boshqalar bilan bog'liq qonunlarga murojaat qiladi. Qur'onning fuqarolik munosabatlariga ayniqsa tegishli bo'lgan ba'zi sura va oyatlariga quyidagilar kiradi:

- ✓ “Baqara” surasi (2-bob): Bu surada shartnomalar, bitimlar va moliyaviy munosabatlardagi adolat tamoyillari haqida oyatlar mavjud.
- ✓ “Niso” surasi (4-bob): Bu bobda meros qonunlari, nikoh shartnomalari, oila a'zolarining huquq va majburiyatlar haqida so‘z yuritilgan oyatlar mavjud.
- ✓ Moida surasi (5-bob): Bu bobda shartnoma masalalari, tijorat operatsiyalarida axloqiy xulq-atvor va nizolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Bular faqat bir nechta misollar va Qur'onda fuqarolik munosabatlari va huquqiy masalalar bo'yicha ko'rsatmalar beradigan ko'plab boshqa oyatlar mavjud. Shu va boshqa manbalardan olingan islom huquqshunosligi islomda fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi tamoyil va qoidalarni yanada chuqurroq ishlab chiqadi. Qur'onda "Baqara" surasida shartnomalar, moliyaviy operatsiyalar va tegishli masalalar bo'yicha yo'l-yo'riq beruvchi bir qancha oyatlar mavjud. Ushbu oyatlarda bayon etilgan tamoyillar Islomda biznes va shartnoma munosabatlarini yuritish uchun axloqiy va huquqiy ko'rsatmalar beradi.

Fiz (Ribo:) “Baqara” surasi Islomda “riba” nomi bilan mashhur bo'lган foiz undirish va qabul qilishni ochiqdan-ochiq taqiqlovchi oyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu oyatlar sudxo'rlik va foizga asoslangan bitimlarning nohaqligiga urg'u berib, aksincha, foiz evaziga qarz berish yo'li bilan boshqalarni ekspluatatsiya qilmasdan, savdo-sotiq va o'zaro manfaatli iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga undaydi.

Baqara surasida shartnomalar va bitimlar:

Bu surada shartnoma majburiyatlarini bajarish va adolat bilan olib borish muhimligini ta'kidlab, shartnomalar va moliyaviy masalalarning turli jihatlarini ko'rib chiqadi. Bu ayniqsa, qarz kontekstida moliyaviy operatsiyalarning hujjatlarini



muhokama qiladigan va aniq yozuvlarni saqlash va majburiyatlarni bajarish muhimligini ta'kidlaydigan oyatlarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari “Baqara” surasining moliyaviy munosabatlar va shartnoma munosabatlaridaadolat, tenglik va o‘zaro rozilik tamoyillariga qayta-qayta urg‘u beradi. Ushbu bob shaxslarni shartnoma majburiyatlarini bajarishga, boshqalarga adolatli munosabatda bo'lishga va nizolarni islom ta'limotlariga muvofiq tinch yo'l bilan hal qilishga undaydi.

“Baqara”surasining Sadaqa (zakot) masalalariga taluqli qismida: Islomda farz qilingan sadaqa bo‘lgan zakot tushunchasi ham tilga olinadi. Garchi shartnomalar bilan bevosita bog'liq bo'lmasada, zakot islom jamiyatidagi moliyaviy munosabatlarning asosiy jihatni bo'lib, boylikni qayta taqsimlash va shaxslarning jamiyat farovonligiga hissa qo'shish mas'uliyatini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, “Al-Baqara” surasi moliyaviy masalalarda axloqiy xulq-atvor bo'yicha keng qamrovli yo'l-yo'riqlar beradi va shartnomaviy kelishuvlarga rioya qilish, barcha iqtisodiy masala va shartnomalarda adolatni birinchi o'ringa qo'yish muhimligini ta'kidlaydi. Bu tamoyillar shartnomalar va moliyaviy munosabatlarga islomiy yondashuvda markaziy o'rinn tutib, axloqiy xulq-atvor, javobgarlik va biznes va moliyaviy munosabatlarda ishtirok etuvchi tomonlarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan umumiylar xulosa qiladigan bo'lsak, Islom huquq tizimi o'sha davr uchun ham hozirgi davr uchun ham adolatli huquq tizimi hisoblanadi. Islom fuqarolik huquqining asosiy va o'ziga xos tomoni shundaki, islom fuqarolik huquqida o'zganining haqiga xiyonat qilmaslik va birovning mulkiga shikast yetkazmaslikka chaqiradi. Doimo musulmonlarni poklikka chaqiradigan normalari mavjud ayniqsa Qur'oni Karimda keltirilgan “Baqara” surasida shartnoma maoliyaviy munosabatlarda adolatli bo'lishga chaqiradigan normalari bor. Undan tashqari payg' ambarimiz (s.a.v)ning hadislarida ham fuqarolik huquqiy munosabatlari taribga solingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Maxsus adabiyotlar:



- 1- Qur'oni karim. Abdulaziz Mansur tarjimasi. Toshkent Islom Universiteti.
- 2- Isxakov S.A Islom fuqarolik huquqi asoslari.T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2005 – B.18
- 3- B. Marg'inoniy. Al-Hidoya (o'zbek tiliga tarjima). T.1. – T.: 2000.

Xorijiy adabiyotlar:

- 1- Prof. Dr. Wahbah az-Zuhaili. Fiqih Islam wa Adillatuhu. Jilid 6. Darulfikir. – R.83

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 2- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: "Yuridik adabiyotlar publish"

Elektron o'quv resurslari:

<https://www.lex.uz/>

<https://library-tsul.uz/>